

## Yer resurslarini boshqarish sohasi mutaxassislari bilan maxsus seminar

Mamlakatning iqtisodiyot tarmoqlari uchun oliy ma'lumotli, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi muhim ahamiyatga egadir. Joriy yilning 9-aprel kuni Yer resurslarini boshqarish fakultetida sohaga oid ish beruvchi tashkilot va korxonalardan yetakchi mutaxassislarni hamda soha vakillarini jalb qilgan holda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini o'quv rejalaridagi fanlar va o'quv dasturlarini muhokama qilish va takomillashtirishga bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi.



Ushbu semenarda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Davlat kadastrlari palatasi, Respublika Aerogeodeziya markazi, "Kartografiya" korxonasidan mutaxassislar hamda Toshkent geodeziya va kartografiya kolleji direktori ishtirot etdilar.



Seminarda 5313400-“Geodeziya va geoinformatika”, 5311200-“Yerlarni masofaviy zondlashda innovatsion texnologiyalar”, 5410700-“Yer kadastro va yerdan foydalanish”, 5311300-“Kadastr (hududlar davlat kadastro)” bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, 5A313401-“Geodeziya va geoinformatika”, 5A410701-“Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish” magistratura mutaxassisliklari o'quv rejalaridagi fanlari muhokama qilindi hamda ilm-fan taraqqiyoti va ishlab chiqarishning bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda yangi fanlarni o'quv rejasiga kiritish bo'yicha takliflar berildi.

**“Geodeziya va geoinformatika” kafedrasi dotsenti S.N.Abduraxmonov axboroti  
TIQXMMI matbuot xizmati**